



Jamaot xavfsizligini ta'minlovchi bo'linmalarning otish makonining hususiyatlari.

J.A Ortikov

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Harbiy tayyorgarlik kafedrası katta o'qituvchisi
tel: 99 346-68-88*

Annotatsiya

Maqolada jamaot joylarida qurol qo'llash sharoitida otish makoni tushunchasi ilmiy va amaliy manbalar yuzasidan ilmiy talqin qilingan. Jamaot joyining otish makoni tashqi ballistika qonuniyatlari, shaharlashgan muhit xususiyatlari hisoblangan aholining mavjudligi, infratuzilma elementlari qurol qo'llayotgan jamaot xavfsizligi xodimlarining psixofiziologik holatiga bta'siri o'rganilgan. Shahar sharoitida qurolli to'qnashuvlarning vertikal va gorizontaal xususiyatlari an'anaviy harbiy yondashuvlardan farq qilishi asoslab berilgan. CQB konsepsiyasi tahlili orqali qisqa masofalarda tezkor qaror qabul qilish va tinch aholi xavfsizligini ta'minlashning ustuvor ahamiyatligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: otish makoni, jamaot joylari, shahar muhiti, tashqi ballistika, CQB, jamaot xavfsizligi.

Аннотация: В статье научно интерпретируется понятие огнестрельного пространства в условиях применения оружия в общественных местах на основе научных и практических источников. Изучены закономерности внешней баллистики места стрельбы общественного места, наличие населения, являющегося особенностью урбанизированной среды, влияние элементов инфраструктуры на психофизиологическое состояние сотрудников общественной безопасности, применяющих оружие. Обосновано, что вертикальные и горизонтальные характеристики вооруженных конфликтов в городских условиях отличаются от традиционных военных подходов. Анализ концепции CQB показывает приоритетность быстрого принятия решений на коротких расстояниях и обеспечения безопасности гражданского населения.

Ключевые слова: место стрельбы, общественные места, городская среда, внешняя баллистика, CQB, общественная безопасность.

Annotation: The article provides a scientific interpretation of the concept of firearm space in the context of weapon use in public places based on scientific and practical sources. It examines the patterns of external ballistics at public shooting sites, the presence of the population, which is a feature of urban environments, and the influence of infrastructure elements on the psychophysiological state of public security officers who use weapons. It is argued that the vertical and horizontal characteristics

of armed conflicts in urban environments differ from traditional military approaches. An analysis of the CQB concept shows the priority of rapid decision-making at short distances and ensuring the safety of the civilian population.

Key words: shooting: location, public places, urban environment, external ballistics, CQB, public safety.

Bugungi kunda otish makoniga oid tushunchalarni ilmiy jihatdan tasniflash zarurati ularning amaliy qo'llanilishida aniqlik va bir xil talqinni ta'minlash bilan izohlanmoqda. Xususan, mo'ljalga olish maydoni deganda, otuvchi tomonidan nishonni vizual qabul qilishdan boshlab uni mo'ljal chizig'i bilan muvofiqlashtirishgacha bo'lgan fazoviy masofa va jarayonlar majmui tushuniladi. Ushbu maydon otuvchining ko'rish organlari, qurolning mo'ljal vositalari va nishon o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalab, otish aniqligiga bevosita ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Ilmiy nuqtayi nazardan, mo'ljalga olish maydoni faqat geometrik masofa emas, balki psixofiziologik qabul qilish, diqqatni jamlash va motor harakatlarni muvofiqlashtirish jarayonlarini ham qamrab oladi.

Talofat yetkazish uzoqligi tushunchasi esa o'qning nishonga ta'sir ko'rsatish imkoniyati saqlanib qoladigan fazoviy chegara sifatida talqin etiladi. Bu masofa o'qning nishon sathiga tegish burchagi, uning ballistik trayektoriyasi va zarba energiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'sir samaradorligini belgilaydigan asosiy parametrlardan biri hisoblanadi. Amaliy jihatdan, ushbu ko'rsatkich qurol qo'llashda mutanosiblik va zaruriyat prinsiplarini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki masofa oshib borgan sari o'qning talofat yetkazish qobiliyati kamayishi mumkin.

Panalangan zona tushunchasi otish makonida xavfsizlik va taktik rejalashtirish nuqtayi nazaridan alohida o'rin tutadi. U to'siqlar ortida joylashgan nishonga o'q yoki snaryadning to'g'ridan to'g'ri yetib bormasligi bilan ifodalanadi. Bunday zonalar qurol qo'llash jarayonida otuvchi tomonidan to'siqlarning balandligi, qalinligi va material xususiyatlarini hisobga olgan holda baholanishi lozim. Ilmiy qarashlarga ko'ra, panalangan zonaning mavjudligi nishonning nisbatan xavfsiz holatda bo'lishiga olib keladi, biroq u doimiy emas, chunki harakatchan nishon yoki otish burchagining o'zgarishi mazkur zonani bartaraf etishi mumkin.

Shu bilan birga, o'lik hudud otish makonida o'q trayektoriyasi nishon joylashgan fazoni kesib o'tmaydigan hudud sifatida ta'riflanadi. Bu hudud odatda relefnig xususiyatlari, to'siqlar konfiguratsiyasi va otish nuqtasining joylashuvi bilan belgilanadi. Ilmiy tahlil shuni ko'rsatadiki, o'lik hududlarni aniq belgilash va ularni hisobga olish taktik harakatlarni rejalashtirishda, ayniqsa, shahar sharoitida qurol qo'llash xavfini minimallashtirishda muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, otish makoniga oid ushbu tushunchalarni kompleks va tizimli tahlil qilish o'q otish tayyorgarligi nazariyasini takomillashtirishga, qurol qo'llashda aniqlik, xavfsizlik va qonuniylikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Rus olimi, jumladan N.M. Filatov[1] rahbarligidagi ilmiy guruh tomonidan pulemyot va avtomatlardan otish qoidalarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar tashqi ballistika elementlarini chuqur o'rganishga asoslangan. Ushbu izlanishlar doirasida yopiq pozitsiyadan otish, bo'linmalar orasiga va ularning ustidan o'q uzish, harakatlanuvchi nishonlarga hamda havo nishonlariga otish makonlari kabi murakkab

taktik holatlar ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlar klassik to'g'ridan to'g'ri otish doirasidan chiqib, makon va traektoriyani kompleks baholashga qaratilgan yondashuvlarni shakllantirgani bilan ahamiyatlidir.

Filatov N.M. tomonidan olib borilgan ilmiy asoslangan tajribalarda otish qoidalari nishonni mahv etish yoki yo'q qilish samaradorligini oshirish tashqi ballistikaning asosiy elementlarini makonlarga bo'lish orqali tizimlashtirgan. Xususan, qo'shin ustidan o'q uzish usullarida "o'lik zona" orqali manyovrli otish konsepsiyasi ilgari surilgan bo'lib, u o'q traektoriyasining balandligi va tushish burchagidan foydalangan holda o'z bo'linmalari xavfsizligini saqlab qolishga xizmat qiladi. Bu yondashuv otish makonini faqat geometrik masofa sifatida emas, balki fazoviy-taktik kategoriya sifatida talqin qilish imkonini bergan.

Shuningdek, ushbu ilmiy maktab doirasida o'q otish tayyorgarligi fani ta'limotida "makon" tushunchasi mazmunan kengaytirilib, u mahv qiluvchi makon, o'lik makon va panalangan makonlarga ajratilgan. Bunday tasnif otuvchiga otish jarayonida nishonga ta'sir qilish imkoniyatlarini, shu bilan birga xavfsiz va samarasiz hududlarni oldindan aniqlashga imkon yaratadi. Mazkur makonlarning aniq belgilanishi taktik rejalashtirish, o'q-dori sarfini optimallashtirish hamda otish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Otish tayyorgarligining zamon zayli bilan rivojlanishi natijasida otish makoni haqidagi tasavvurlar otish qoidalariga chuqur integratsiya qilinmoqda. Bunda nazariy ta'limotlar o'qlarning tasodifiy yoyilish qonunlari, ehtimoliy taqsimot modellari hamda nishonga tegish samaradorligini baholashda qo'llaniladigan matematik formulalarga tayanadi.

Tadqiqot muammosiga oid olib borilgan ilmiy izlanishlarda shuni ko'rsatdiki aksariyat qurolli to'qnashuvlar jamoat joylarida sodir etilayotganligi hisoblanib, mazkur sharoitlarda qurol qo'llashda tezkorlik jihatlari e'tiborli hisoblanmoqda. Tezkorlik bilan o'q uzish yuzasidan pedagog olimlar A.I.Petrov[2] va A.A.Belyakovlar[3] individual qurollardan tezkorlik bilan o'q uzishni o'qitishga qaratilgan o'qitish metodikalarida qurol bilan bajariladigan amaliy harakatlariga va otish masofalarining yaqinligiga e'tiborliligini o'z ilmiy ishlarida o'rganishgan.

Bizning fikrimizcha, shahar sharoitida bo'lib o'tadigan otishmalarda, xodim tomonidan samarali qurolni qo'llay olish mahoratiga ega bo'lish darajasini o'zlashtirishga javob beradigan o'k otish mashqlari ko'cha va jamoat joylarini, bino va inshootlarini ifodalaydigan masofalarni aks ettirishi bilan birga sarflaniladigan vaqtlar va otish holatlarini o'zida mujassam etishi bilan birga tasodifiy shaxslarni talofat yetkazmasdan qurol qo'llash jihatlarning uyg'unligida ifodalanishi muhim ahamiyatlidir. Ushbu otish mashqlaridagi ko'rsatkichlar jamaot joylarining hususiyatlarini ifoda etuvchi qat'iy mezonlar hisoblanadi deb hisoblaymiz.

Jamoat hududlarida qurol qo'llashning o'ziga hos bo'lgan murakkab jihatlari bu sanoat ob'ektlari, turar joy binolari, yer osti inshootlari, logistika hududlari va barcha infrotuzilmalarning mavjudligi bo'lib ochiq jang maydon sathinining yo'qli bilan avvalgi otish qoidalaridan tubdan farqlanayotganligi hususida olimlarning nazariy qarashlari hamda amaliy fikrlari o'rganildi. Xarbiy mutahasislarning fikricha, shahar bu - hudud, aholi, va infratuzilma elementlaridan tashkil topgan va muajassamlashgan tizim bo'lib, ushbu elementlarning o'zaro bog'liqligini namoyon qilishi yagona makonligi va yagona shaharlashgan makonda bo'lib o'tadigan xarbiy

mahsus operatsiyalarning hudud elementida shahar yer maydonining yer usti va osti inshootlar, transport, aloqa suv kommunikatsiyalari, daryolar, suv xavzalari kabi bog'larning joylashganligining umumiy qilib soha mutahasislari D.A. Dmitriev, S.V. Xarchenkolar atashgan[4]. Shaharlashgan borliqda bo'lib o'tadigan qurolli nizolar yoki qurol qo'llash holatlarida aholi elementining ahamiyatligi, ya'ni aholining zich joylashuvi natijasida qurbonlar sur'atining yuqoriligi bilan ifodalanida.

Amerika xarbiy eksperti Martin Libiskining fikricha, yaqin o'n yil davomida, qurolli to'qnashuvlar aholi kam yashaydigan hududlarda emas shaharlarda bo'lishi kutiladi deb ta'kidlagan[5]. Tadqiqotchi D.Dubrovskiy har bir bino o'ziga xos istehkomdan iborat bo'lib, unda yerto'ladan tortib chordoqgacha bo'lgan himoyalangan pozitsiyalardan iborat sharoitlarda qurol qo'llash qonuniyatlari o'zgacha hisoblanadi deydi[6]. Shahar sharoitida qurolli to'qnashuvlar umumxarbiy taktikaning urush nazariyalarida belgilangan front, flang ort (тыл) chizig'lar bilan cheklanmasdan vertikal yo'nalishlarga yoyilishi bilan hamda urush nazariyasi tartibida qurol qo'llanilmasligi bilan izohlanmoqda. Ana'anaviy xarakterga ega bo'lgan jang sarhadlarining uzunligi va kengligi bilan ifodalansa, zamonaviy xarakterdagi ega bo'lgan jang sarhadlari esa balandligi va chuqurligi bilan ifodalanmoqda.

AQSh xarbiy nazariyasida shahar borlig'ining tuzilmasida 5 ta elementlarni o'z ichiga oladi, bular quyidagilar hisoblanadi:

1. Shaharning tepasidagi xavo makoni.
2. "Super maydon" Bino va inshootlarning tom qismiining maydoni.
3. "Ichki- maydon"», yerdan tomgacha bo'lgan bino va inshootlarning ichki hududlari.
4. "Er usti maydoni"ko'chalar, suv xavzalarining yuzi.
5. "Er osti maydoni" yer osti va suv osti inshootlari va ob'ektlaridan iborat.

Amerika armiyasining yo'riqnomalarida, shaharlarda olib boriladigan xarbiy operatsiyalarning mazmun mohiyatini quyidagicha ta'riflanadi, ya'ni "shahar sharoitida olib boriladigan xarbiy operatsiyalarga aholining noroziligi va ular tomonidan yaratiladigan turli hil qiynchiliklarga qarab taktik harakatlarni amalga oshirilishi belgilanadi. AQSh armiyasining butun dunyoda olib boradigan xarbiy operatsiyalari urbanizatsiyalashgan hududlarda o'tkazilishi extimolidan xoli emas.

Cheklangan makonda qisqa masofalarda mahsus jangovar operatsiyalarni bajarishning ilg'or xorijiy tajribasi "CQB" (cheklangan makonda yaqin jang) dasturi hisoblanadi[7]. Mazkur dasturda qisqa masofalarda cheklangan otish makonida o'qotar qurolni samarali qo'llashning texnik hamda taktik jihatlari inobatga olingan. Rus olimi I.V.Samojenov[8] politsiya hodimlari jinoyatchi bilan kiska masoflarda otishmali vaziyatlarda noqulay hamda cheklangan hududlarda qurolni samarali o'q uzush, o'q uzush chizig'idan havfsiz joyga ko'chishdan iboraligini ma'lum qilgan. Ushbu tadqiqotchi tomonidan jamoat joyida kechadigan otishmalarning hududiy – mavsumiy tuzilishlarini qamrab olgan borliqni otish makonni deb ataydigan bo'lsak, ushbu makonda kechadigan otishmalarni umumiy yagona tushuncha sifatida "otish makoni" degan ta'rifini o'z ilmiy tadqiqotimizda qo'llashni maqsad deb bildik.

Jamoat xavfsizligini ta'minlovchi kuch ishlatar tuzulmalar faoliyatida o'q otish makonini zamon va vaqt talablariga moslashtirish hamda uni samarali boshqarish

masalasi markaziy o‘rin tutadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, sun‘iy inshootlar va tabiiy to‘siqlar mavjud bo‘lgan murakkab operativ vaziyatlarda harakat qilish xodimdan yuqori darajadagi jismoniy chidamlilik, psixofiziologik barqarorlik hamda tezkor tahlil qilish salohiyatini talab etadi. Shu bois, o‘q otish tayyorgarligi tizimida real xizmat sharoitlarini otish makoniga modellashtiruvchi mashqlar orqali amalga oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan o‘qitish usullarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Mazkur masalada e‘tiborga molik asosiy jihat shundaki, harbiy xizmatchilarni tayyorlash tizimi an‘anaviy ravishda o‘qotar qurolni dushmanning tirik kuchini maksimal darajada yo‘q qilishga qaratilgan harbiy doktrina va umumharbiy jang nazariyasiga tayangan holda shakllantirilgan. Ushbu yondashuv klassik urush teatrida qo‘shinlarning to‘qnashuvi, frontal harakatlar va yuqori intensivlikdagi jangovar harakatlar uchun samarali hisoblanadi. Biroq, zamonaviy harbiy-siyosiy vaziyatlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, xavf-xatarlar ko‘proq asimmetrik, lokal va gibrid xarakter kasb etmoqda hamda ular, ko‘p hollarda, aholi zich joylashgan shahar muhitida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa umumharbiy urush teatri nazariyasiga to‘liq mos kelmaydigan yangi operativ va taktik talablarni yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, jamoat xavfsizligini ta‘minlash bo‘linmalari xodimlarining o‘q otish tayyorgarligi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim. Amalda shahar sharoitida o‘q otish makonida qurolni texnik jihatdan samarali qo‘llashga qaratilgan muayyan o‘quv tizimlari mavjud bo‘lsada, mazkur tizimlar asosan nishonni urish aniqligi, tezkorlik va taktik harakatlar bilan cheklanib qolmoqda. Bunday otish makonida aholining mavjudligi qurolni qonuniy qo‘llash mezonlari, ya‘ni huquqiy asoslanganlik, mutanosiblik, zaruriyat va oxirgi chora prinsiplari o‘q otish tayyorgarligi mazmuniga yetarlicha chuqur integratsiya qilinmagan.

Rus olimi A.A.Karimov[9] shaharning hududiy mavsumiy tuzilishida sodir etilayotgan otishmalarning hususiyatlaridan kelib chiqib quyidagi o‘q otish makonlariga bo‘lgan:

birinchidan, ko‘p qavatli xonadonlarda xodim bilan jinoyatchi o‘rtasidagi o‘q otish masofasi chamasi 8 metrgacha bo‘lgan hududlar, shunigdek, xonalarda mavjud devor to‘siqlar, eshik va derazalar hamda ularning ichkariga va tashqariga ochilishi, zinapoyalarda hamda boloxona va yerto‘lalarda xavfsiz harakatlanish bilan panalab o‘q uzish uchun qulay bo‘lgan pozitsiyalarni egallash imkoni beruvchi makon;

ikkinchidan, alohida binoda qurollangan yoki ijtimoiy xavfli jinoyatchini qo‘lga olish yoki zararsizlantirish uchun harakatlanishini cheklaydigan to‘siqlar, transport vositalar va piyodalarning harakatlari hamda aholining zichligi, aholi uchun va jamoat tartibini saqlovchi harbiy xizmatchi uchun xavfsiz bo‘lgan o‘lik otish zonalarida harakatlaniladigan makon;

uchinchidan, muntazam aholi bilan gavjum bo‘lgan hududlarda qurol qo‘llay olishning imkoniyatini cheklashi bilan jinoyatchining voqea joyidan qochish imkoniyatini yaratadigan makon;

to‘rtinchidan, jamoat transportining ichida huquqbuzarga nisbatan qurol qo‘llashda yo‘lovchilar, transport salonidagi o‘rindiqlar, ushlar tutqichlarida qurol qo‘llashda noqulayliklarni yuzaga keltirishi, hamda transport vositasining harakatlanishi o‘qchining tebranishi esa otish samaradorligini pasaytiradigan makon;

bashinchidan, ochiq va keng maydonlardan iborat bo'lgan makonlarda qurol qo'llash. Umumharbiy taktik qonuniyatlar asosida qurol qo'llash xususiyatlari bilan kechadigan makon. Zamon va makonlardan iborat bo'lgan barcha makonlarda sodir etiladigan o'q otish to'qnashuvlarda yuzaga keladigan vaziyatlarda qo'llaniladigan taktikalar o'q otish kontaktining hususiyatlaridan kelib chiqib o'zgaruvchan bo'lishini bayon etgan. Otish makonining kengligi aksariyat quruqlikdagi qo'shnlarning keng manyovrli janglarni qamrab olayotganligi nishonlar joylashtirish nuqtalari, istehkomlarni oshib o'tish, turli to'siqlardan o'q otar quroldan qo'llaniladigan usullarni qamrab olishi jang nazariyasi ta'limotlaridan kelib chiqib ishlab chiqilmoqda.

Tadqiqotchi olim A.A.Afanasev^o. [10] o'z ilmiy qarashlarida xodimlarni otish mashqlarini bajarayotgan tirlarda o'tkazilishi natijasida o'qchi 5 va 7 gradus maydonda otish sektoriga ega bo'lishi bilan cheklanilayotganli sabali 180 gradus sektorida kompleks otish mashqlarini bajarish bilan haqqoniy otish ko'nikmalarini rivojlantirish kerakligini ta'kidlagan. Bunday o'q otish mashg'ulotlarini o'tkazish tartibining belgilashda aholi yashash punktlarida o'q otishni o'qitish metodikasi qay tartibda o'tkazilishi va tashkillashtirilishi va o'q otish poligonlarining shaxar tipiga ega bo'lgan maketlar yordamida ta'mirlanishi, inshootlarning eshik, deraza yoriqlaridan, devor to'siqlari yordamida burchak ostidan o'q otish hamda zinapoyalardan harakatlangan holda o'q otish mashqlari olib borish usullarini qay tartibda o'tkazilishi bayon qilingan.

Ushbu o'quv ob'ektlarini "o'quv labirinti" deb nomlangan bo'lib, xarakatsiz va xarakatlanuvchi nishonlar bilan ta'minlangan. Yuqori qavatlardan o'q otish pozitsiyasi qulaylikka ega bo'lganligi sababli bolxonalardan qay tartibda o'q otish metodlari, o'q otish pozitsiyalarni egallashda to'siqlar orqali o'q otish va harakatlangan holda o'q otish mashqlarini bajarish tartiblari ko'rsatilgan. Jamoat borlig'ida qurol qo'llash makonida o'q otish pozitsiyalarini o'zgartirish hamda o'q otish masofalarining qisqaligi bilan sodir etilayotganligi yuzasidan o'z ilmiy nazariyalarini bayon etgan gurux olimlari otish makonida tezkorlik va qisqa masofalarda namoyon bo'lishi yuzasidan bir olimlar V.V.Gorlov[11], V.A. Kryuchin[12], A.L.Orexov[13], A.V. Afanasevlar[14] bo'lib, hamda ushbu otish makonida tezkorlik bilan o'q otish elementlarni amaliy bajarish bilan o'q otish tarafdorlari bo'lgan guruh olimlari A.S.Kolesnikov[15], V.V.Chernых[16], V.A.Shiyan[17], S.A.Ivanov-Katanskiylar[18] o'z ilmiy qarashlari hamda tajribalarida bildirishgan. Bilamizki, o'q otish xodisadariga ta'sir qiluvchi omillarga: metereologiya (tuman, yomg'ir, qor, shamol va x.k) chalg'ituvchi (shovqin, qurolni tepishi, gilzani uchishi, nishonni yaqqol ko'rinmasligi) kabilar bilan namoyon bo'ladi. Yuqoridagi bildirilgan olimlarning fikrlarini o'rganilib jamoat xavfsizligini ta'minlovchi kuch ishlatar tuzulmalar aholi gavjum joylarda qurol qo'llaydigan otish makonga ob'ektiv va sub'ektiv ta'sir qilishini quyidagicha izohladik.

Shundan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalb qilingan harbiy xizmatchilar zamon hamda makonga tabiiy yo'sinda moslashadilar. Xizmat olib boradigan joyning hususiyatlarining ob'ektiv ta'siriga tushadilar, moslashadilar sub'ektiv ta'sirda esa otish makonini o'zining bilim va ko'nikmalaridan kelib chiqib o'z nazoratiga oladi.

Obektiv moslashuv – jamoat xavfsizligini ta'minlovchi kuch ishlatar tuzulmalar qurol qo'llaydigan otish makonidan iborat bo'lgan zamon va makonlarda kechadigan

kunduzi va tungi vaqtlarda moslashishi, o'q otish vazifasini bajarishda bino inshootlardan o'ziga ma'qul holatlarni egallash natijasida fuqarolarga talofat yetkazmaydigan otish fursatlaridan iborat.

Sub'ektiv o'z nazoartiga olish – harbiy xizmatchilar qurol qo'llaydigan otish makonini o'ziga buysundirishi, ya'ni o'q otish kontaktida tashabuskorlikni qo'lga olishda vaziyatni huquqiy baholash bilan qonuniy to'g'ri qaror qabul qilish, qurol bilan bajariladigan o'q otish texnikasini va otish taktikasini bajarishdagi murakkab amaliy harakatlarning ratsional tarzda samarali bajarish va yuzaga keladigan ruhiy hamda jismoniy zo'riqqishlar o'z nazoratiga olishdan iborat.

Harbiy xizmatchilar tomonidan shahar sharoitida qurol qo'llashga ta'sir etuvchi jihatlari bu o'q otish borlig'iga moslashish bilan qulay fursatlarni yuzaga keltirish orqali samarali o'q otish amaliy harakatlarini bajarishdan iborat deb hisoblaymiz. Yakuniy xulosa o'rnida shunday hulosaga kelish mumkinki jamoat joylarining zamon va makonlardan tashkil topgan kun-tun, bino inshootlar, turli infrastrukturalar hamda aholining mavjudligi bilan kechadigan otish makonlarida jamorat tartibini saqlovchi tuzulmalar tomonidan keskin vaziyatlarda qurol qo'llashga moslashishi bilan o'q otish kontaktidagi amaliy harakatlarni unumli qo'llashi natijasida vaziyatni o'z nazoratiga olish malakasiga ega bo'lishi kerak hisoblaniladi.

O'tkazilgan nazariy tahlillar va mavjud ilmiy manbalarni tizimli o'rganish shuni ko'rsatadiki, "otish makoni" tushunchasi zamonaviy jamoat xavfsizligini ta'minlash amaliyotida faqatgina geometrik yoki ballistik kategoriya sifatida emas, balki ko'p omilli, dinamik va kompleks tizim sifatida qaralishi lozim. U o'z ichiga tashqi ballistika qonuniyatlari, urbanizatsiyalashgan muhit xususiyatlari, aholi zichligi, infratuzilma elementlari, huquqiy cheklovlar hamda shaxsiy tarkibning psixologik va jismoniy holatlarini qamrab oladi. Rus va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalariga tayanib aytish mumkinki, otish makonini mahv qiluvchi makon, o'lik makon va panalangan makonlarga ajratish tashqi ballistika qonuniyatlariga asoslangan holda nishonga ta'sir samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq mazkur yondashuvlar asosan ochiq jang maydoni sharoitiga mos bo'lib, shahar muhitida kechadigan qurolli to'qnashuvlarning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq qamrab olmaydi.

Xulosa qilib aytganda, jamoat joylarida qurol qo'llash bilan bog'liq otish makoni zamon va makonning doimiy o'zgaruvchanligi, aholi ishtirokining yuqoriligi va huquqiy cheklovlarning qat'iyligi bilan tavsiflanadi. Shu sababli, jamoat xavfsizligini ta'minlovchi bo'linmalar shaxsiy tarkibini tayyorlashda otish makonini nazariy, amaliy va huquqiy jihatlarni uyg'unlashtirgan holda o'qitish, qaror qabul qilish mustaqilligini shakllantirish hamda tinch aholiga talofat yetkazmasdan keskin vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlarni takomillashtirish zarur deb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Филатов Н.М.. Краткие сведения об основаниях стрельбы из винтовок и пулеметов. Изд. Восьмое.— М.: Воениздат. 1944 с. 142.

2. Петров.И.И. Скоростная стрельба из индивидуального оружия. Учебно-методическое пособие по скоростной стрельбе из пистолета и автомата Калашникова. г Челябинск 2009 г.

3. Беляков.А.А Технология формирование навыков скоростной стрельбы в профессиональной подготовке курсантов военных организatsiy высший образование. Санкт-Петербург-2020 г.

4. Д.А. Дмитриев, С.В. Харченко. Ведение боевых действий в городских условиях (городской бой, стратегия и тактика). Военная академия материально-технического обеспечения им. генерала армии А.В. Хрулева.№41. Санкт-Петербург. 2020. С.16-25. www.milresource.ru/Title-Future-Warfare.html.

5. www.milresource.ru/Title-Future-Warfare.html

6. Д.Дубровский. В каменной лабиринтах. Армейский Сборник №9 2023 Г. Электронный адрес: <https://army.ric.mil.ru/Stati/item/511721/>. Дата обращения 20.12.2023 г.

7. Close Quarters Battle CQB or close quarters combat CQC Кириш режимы: <https://alfaregion.spb.ru/services/programs/tactics-5> мурожаат санаси 03.02.2024 й.

8. Саможенов.И.В. Особенности применения пистолета в бою на малых дистанциях и в замкнутых пространствах. Воронежский институт МВД Росси. В.2020.С. 281-286.

9. А.А.Каримов. Некоторые аспекты по совершенствованию огневой подготовки сотрудников ОВД исходя из статистики применения табельного оружия. Электрон манба <https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye-aspekty-po-sovershenstvovaniyu-ognevoy-podgotovki-sotrudnikov-ovd-ishodya-iz-statistiki-primeneniya-tabelnogo-oruzhiya/viewer>.мурожаат санаси 12.06.2024 й.

10. .Афанасев А.А Обучение сотрудников органов внутренних дел приемам стрельбы из пистолета после перемещений в секторах. Дисс. Раб. 2011 г. Омск. 16-17.

11. В.В.Горлов В.В.Кулемин. Личная физическая безопасность сотрудников. <https://cyberleninka.ru/article/n/lichnaya-fizicheskaya-bezopasnost-sotrudnikov-organov-vnutrennih-del>

12. Крючин Практическая стрельба: книга для спортсменов. Челябинск, 2006. С. 76.

13. Орехов А.Л. Огневой бой на коротких дистанциях. Стрельба из пистолета и уход с линии прицеливания противника // Спецназ.1997. № 2–3.

14. А.В. Афанасьев Обучение сотрудников органов внутренних дел приемам стрельбы из пистолета после перемещений в секторах: дис. ... канд. пед. наук. Красноярск, 2011.

15. А. С. Колесников, Методика обучения огневой подготовке сотрудников правоохранительных органов на современном этапе / А. С. Колесников. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2019. — № 15 (253). — С. 266-270. — URL: <https://moluch.ru/archive/253/57954/> (дата обращения: 27.04.2023).

16. В. В. Черных Н. О. Николаев Влияние международной конфедерatsii практической стрельбы IPSC (техника, тактика стрельбы, методика обучения обращению с оружием) на развитие огневой подготовки в органах внутренних дел и проблемы огневой подготовки сотрудников ОВД // Концепт. — 2014. — Спецвыпуск № 20. — ART 14748. — 0,4 п. л. — URL: <http://ekoncept.ru/2014/14748.htm>. — Гос. рег. Эл № ФС 77-49965. — ISSN 2304-120X

17 В.В. Шиян Современные технологии спорта высших достижений в профессиональной подготовке сотрудников силовых ведомств : мат. междунар. науч. конгр. (Москва, 2-4 февраля 2006 г.). – Москва : Анита Пресс, 2006.

18. Иванов-Катанский С.А. Шаг-маятник:искусство уклонения от выстрелов, методы скоростной стрельбы и техника обезоруживания. М., 2002